


Samarqand viloyatida nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi 2026-yil yanvar-mart oylari uchun (dastlabki ma'lumotlar)

- I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi.
- II. Tuman va shaharlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi.
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.
- V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi

Samarqand viloyatida 2026-yil yanvar-mart oylarida o'rtacha oylik ish haqi 5 069,4 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **17,8 %** ga o'sgan.

Yillar kesimda o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(yillik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(choraklik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(yillik\)](#)

II. Tuman va shaharlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori

Tuman va shaharlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2026-yilning yanvar-mart oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2025-yilning mos davri bilan taqqoslangan.

	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	5 069,4	116,5
Samarqand shahri	6 716,4	116,6
Kattaqo'rg'on shahri	4 396,7	113,1
Oqdaryo tumani	3 794, 8	117,1
Bulung'ur tumani	3 867,1	119,9
Jomboy tumani	4 728,8	119,3
Ishtixon tumani	4 065,4	126,6
Kattaqo'rg'on tumani	4 424,9	119,7
Qo'shrabot tumani	3 731,7	116,3
Narpay tumani	4 131,1	112,4
Payariq tumani	3 692,2	110,6
Pastdarg'om tumani	3 898,3	109,1
Paxtachi tumani	3 900,0	115,8
Samarqand tumani	4 911,3	113,1
Nurobot tumani	4 278,2	117,9
Urgut tumani	4 285,7	118,7
Toyloq tumani	4 544,3	115,0

Tuman va shaharlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari Samarqand shahri 5 069,4 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,5% ga o'sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Ishtixon tumanida 4 065,4 ming so'mni (126,6%), Bulung'ur tumanida 3 867,1 ming so'm (119,9%), Kattaqo'rg'on tumanida 4 424,9 ming so'm (119,7%), Jomboy tumanida 4 728,8 ming so'mni (119,3%), Urgut tumanida 4 285,7 ming so'mni (118,7%), Nurobod tumanida 4 278,2 ming so'mni (117,9%), Oqdaryo tumanida 3 794,8 ming so'm (117,1%), va Samarqand shahrida 6 716,4 ming so'mni (116,6%) ni tashkil etgan.

O'z o'rnida, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Qo'shrabot tumanida 3 731,7 ming so'm (116,3%), Paxtachi tumanida 3 900,0 ming so'm (115,8%), Toyloq tumanida 4 544,3 ming so'mni (115,0%), Kattaqo'rg'on shahrida 4 396,7 ming so'mni (113,1%), Samarqand tumanida 4 911,3 ming so'mni (113,1%), Narpay tumanida 4 131,1 ming so'mni (112,4%), Payariq tumanida 3 692,2 ming so'mni (110,6%), hamda Pastdarg'om tumanida 3 898,3 ming so'mni (109,1%), tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori haqida ma'lumotlar 2026-yilning yanvar–mart oylariga oid bo'lib, 2025-yilning mos davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turi nomi	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Sanoat	5 705,2	115,4
Qurilish	4 861,2	108,3
Savdo	5 006,0	138,0
Tashish va saqlash	8 663,5	88,2
Yashash va ovqatlanish	5 881,6	125,3
Axborot va aloqa	10 495,3	108,8
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati	11 872,2	104,9
Ta'lim	4 239,1	111,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4 398,2	123,2
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	4 150,6	90,4
O'rtacha	5 069,4	116,5

O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganida eng yuqori o'sish sur'atlari savdo sohasida qayd etilganligi, xususan, bu sohada 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 138,0 % ni, ish haqi miqdori esa 5 006,0 ming so'mga yetganligi kuzatildi.

Shuningdek, yashash va ovqatlanish sohasida o'rtacha ish haqi 5 881,6 ming so'mni tashkil etib, 25,3 % ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 4 398,2 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,2 % ga, sanoat sohasida 5 705,2 ming so'mni tashkil etib, 15,4 % ga, ta'lim yo'nalishida o'rtacha ish haqi 4 239,1 ming so'mni tashkil etib, 11,6 % ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'rtacha oylik nominal ish haqi axborot va aloqa 10 495,3 ming so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 8,8 % ga, qurilish sohasida 4 861,2 ming so'mni tashkil etib, 8,3 % ga, bank, sug'urta, lizing, kredit va moliyaviy vositachilik faoliyati 11 872,2 ming so'mni tashkil etib, 4,9 % ga, tashish va saqlash 8 663,5 ming so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 8,2 % ga va san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida o'rtacha ish haqi 4 150,6 ming so'mni tashkil etib, 0,4 % ga o'sgan bo'lsada boshqa tarmoqlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdorining so'nggi besh yildagi o'zgarishi tahlil etilganida, 2026-yilning I choragida bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ish haqi miqdori 11 872,2 ming so'mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 6 761,7 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


Shuningdek, so'nggi besh yilda tashish va saqlash sohasida 9 847,0 ming so'mga, axborot va aloqa sohasi bo'yicha ish haqi miqdori 9 729,2 ming so'mga, yashash va ovqatlanish bo'yicha ish haqi miqdori 5 542,5 ming so'mga, ta'lim bo'yicha ish haqi miqdori 3 931,4 ming so'mga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida 3 639, ming so'mga ko'payganligi kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Sanoat sohasida o'rtacha oylik ish haqi 5 705,2 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida 5 940,4 ming so'm, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida 8 419,9 ming so'm, ishlab chiqarish sanoati sohasida 5 238,1 ming so'm, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sohasida 4 497,4 ming so'm ekanligi kuzatildi.

Sanoat sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Savdo sohasida o'rtacha oylik ish haqi 5 006,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash tarmog'i 7 539,0 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo 5 315,5 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo sohasi 4 016,8 ming so'mni tashkil etgan.

Savdo sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik ish haqi 8 663,5 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori ombor xo'jaligi va yordamchi transport 11 926,9 ming so'mni, quruqlikdagi va quvur transporti 8 881,9 ming so'mni tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm




Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik ish haqi 10 495,3 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi axborot xizmati ko'rsatish 10 244,6 ming so'mni, aloqa sohasi 8 724,7 ming so'mni tashkil etgan.

Axborot va aloqa sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi 11 872,2 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari sohasi 33 392,5 ming so'mni, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha yordamchi faoliyat 12 357,3 ming so'mni, sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar sohasida 11 372,2 ming so'mni tashkil etgan.

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi,
ming so'm



Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi 4 239,2 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi oliy ta'lim sohasida 9 867,5 ming so'mni, texnik va professional ta'lim 4 783,4 ming so'mni, umumiy o'rta ta'lim 5 576,0 mingni so'm, maktabgacha ta'lim sohasi 2 254,9 ming so'mni tashkil etgan.

Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi,
ming so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

V.O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

Samarqand viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar korxonalar va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn tarzda taqdim etilgan statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishlog xo'jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Samarqand viloyatining barcha korxonalar va tashkilotlari, jumladan kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e'lon qilinadi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son Farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik sub'ektlari va fermer xo'jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralariga yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

Hisobot oyi uchun nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

bunda:

W_n – nominal hisoblangan ish haqi;

F – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

L – hisobot oyi uchun xodimlarning o'rtacha soni;

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 31-maydagi 122-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Metama'lumot uchun havola:

[Iqtisodiyot bo'yicha ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
K.Tosheva
55 701-80-00 (3070)

Manzil:

